

**YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA LIDERLIK
KO'NIKMALARINING O'RNI VA AHAMIYATI**

Namangan davlat pedagogika instituti

Falsafa va Tarix fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Tillayev Bobomurod Abduvahhobovich

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Texnologik talim yonalishi

TXT BU 24-guruh 1-bosqich talabasi Karimova Zuhra Husanboy qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan va mazkur jarayonlarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Yoshlarda liderlik ko'nikmalarini shakillantirish va uning ahamiyati haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, jarayon, lider, islohot, yoshlar, ijtimoiy rivojlanish, ta'lim, ko'nikma.

Yoshlik davri – insonda liderlik poydevorini yaratish va qobiliyatini rivojlantirishning uchun eng maqbul vaqt hisoblanadi. Bu davrda har bir yosh o'zining yetakchilik salohiyatining nazariy jihatlarini o'rganadi va imkon qadar uni amaliyotda qo'llashga harakat qiladi. Yoshlar liderligini rivojlantirish dasturlari aslida kattalar liderligining ildizlarini shakllantirish va poyasini mustahkamlashga yordam beradi. Yoshlar liderligi – bu har bir yoshning jamiyatda o'z ta'sirini qo'llash usulidir. Yoshlarda dastlabki liderlik nishonlari ularning o'zini tanishdan o'z oila a'zolari yoki tengdoshlari bilan o'zaro munosabat o'rnatish va ta'sir qilish orqali quriladi.

Ma'lumki, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi "Ijtimoiy sohani rivojlanish" etib belgilangan. O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining g'oyat muhim yo'nalishi bo'lgan ijtimoiy sohadagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- aholi bandligi va real daromadlarini oshirish;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;
- arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislikkommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish;
- ta'lim va fan sohasini rivojlantirish; - yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Murojaatnomada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev O'zbekistonni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida to'xtalar ekan, mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi bиринчи navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlar samarasi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidladi.

Keng qamrovli ijtimoiy rivojlanish sohalari tizimida yoshlarga zamonaviy ta'lim-tarbiya berish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasi naqadar o'tkirligi va dolzarbliji bilan alohida ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bularning barchasidan biz yagona bir maqsadni ko'zda tutmoqdamiz. Ya'ni O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart".

Yoshlar yetakchiligining asosini ularning liderlik qobiliyatlarini puxta o'r ganishi, rivojlantirish va uni amaliyotda qo'llashi tashkil etadi. Yoshlarda liderlik xususiyatlarini o'r ganish va rivojlantirish ular hayotning dastlabki bosqichlarida boshlanadi. Jumladan, oilaviy muhit, ota-onalik uslublari, bog'cha, maktab va boshqa ta'sir etuvchi omillar har bir shaxsning erta liderlik tajribasini rivojlanishiga ularning yetakchilik qobiliyatining shakllanishiga muhim hissa qo'shadi. Ushbu davrda yoshlar o'zlarining liderlik qobiliyatlarining asosiy xususiyatlarini shakllantirib uni hayotda qo'llash jarayonini boshlaydilar. Erta bolalik davrida shaxsning liderlik ko'nikmalarini puxta o'zlashtirishi, uning keljakdagi yetakchilik ishtirokidagi samaradorlik ishonchni oshirishga yordam beradi. Liderlikni rivojlantirishda yoshlarda ota-onalarning roli juda muhimdir. Xususan ota-onalari transformatsion (ko'chma) liderlik

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

xulq-atvorni namoyon etgan yoshlar, ulg‘aymasdan turib jamoda o‘zining yetakchilik hatti-harakatlarini namoyon qilishni boshlaydi.

Davlatning yoshlarga bo‘lgan munosabati jamiyat taraqqiyoti darajasi, uning ochiqligi, oldinga intilayotganligining ko‘rsatkichlaridan biridir. Shuning uchun davlatning jamiyatni birlashtirish va fuqarolik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatida yoshlar masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan yoshlar islohotlar chuqurlashayotgan davrda turli to‘siqlarni yengib o‘tishga qodir, mamlakatning yuksalish sari odimlariga kuch bag‘ishlay oladigan aholi qatlamidir. Aynan yoshlar fuqarolik jamiyatining eng faol qismidir, masalan yoshlar turli sohalarda innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy qilishga ko‘proq moslashgan bo‘ladi, ular jamiyatga yangi g‘oyalar va bilimlarni tashiydi hamda ularda o‘z hayotini qurishga intilish kuchli bo‘ladi.

Yoshlar liderligini oshirishning yana bir asosiy manbaasi bu ularning jamiyatning turli qatlamlari bilan ko‘p muloqot qilishi, rahbariyat va o‘z jamosining qo‘llovi hamda akademik yutuqlardan foydalanishidan kelib chiqadi. Yoshlar liderligini shakllantirishning bu usulidan kattalar jamosi har doim ham foylanishga imkoniyat qoldirmaydi. Bu esa "tabiiy lider"lik xususiyatiga ega bo‘lmagan yoshlarning yetakchilik mahoratini oshirishga to‘sqinlik qiladi. Liderlikni shakllantirishning bu usuli juda eksklyuziv (istisno) bo‘lib, yaxshi bilim va qobiliyati ega bo‘lsa ham lekin uyatchan bo‘lgan yoshlarni liderlik faoliyatiga taklif qilish uchun juda zarurdir. Bu eksklyuziv idrok ko‘pincha o‘zlarining yetakchilik salohiyatiga ishonmaydigan yoshlarni liderlik qobiliyatlarini ochib beradi. Yetakchilik moddellaridan umuman xabardor bo‘lmagan yoshlar ko‘pincha liderlarni rasmiy rahbarlik lavozimlariga ega bo‘lgan shaxslar deb bilishadi. Ushbu eksklyuziv fikrlash orqali bu toifa yoshlar o‘zlarini rasmiy rahbarlarga bo‘ysunuvchi deb hisoblashadi. Bu qarash egalari shuningdek, liderlikning tabiiy yetakchilik xususiyatlari bilan tug‘ilgan shaxs sifatida stereotipik qo‘llab-quvvatlaydi.

O‘zbekiston yoshlari bugungi va ertangi kun egalari sifatida mamlakatimizda farovon hayot asoslarini barpo etishda bosh strategik resurs hisoblanadi. Mamlakatimizning demokratik yangilanishlar yo‘lidan odimlashi va taraqqiyot

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

sur'atlari ko‘p jihatdan yoshlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi holati va faolligiga bog‘liq bo‘ladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek,

“... yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e’tibor qaratishimiz zarur”.

2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni ushbu sohaning asosiy yo‘nalishlari bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni aniq belgilab beradi. Qonunda belgilab berilishicha, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati **“yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishni”** nazarda tutadi.

Bu jarayonlarda mamlakatimiz yoshlarini bunyodkor g‘oyalar atrofida birlashtirgan O‘zbekiston yoshlar ittifoqi muhim o‘ringa ega bo‘lmoqda. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi jismonan sog‘lom, ma’nан yetuk va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, yoshlarni tashqi tahdidlar va “ommaviy madaniyat”ning zararli ta’siridan muhofaza qilish, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama ko‘maklashish va shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jismoniy shaxslar tomonidan ittifoq tashkiliy-huquqiy shaklida tuzilgan, O‘zbekiston yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotidir.

XULOSA

Shunday qilib, yoshlar liderligi innovatsiyalar, ijtimoiy faollik va ijobjiy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish orqali jamiyat taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi.

Yoshlar yetakchiligin rivojlantirishning asosiy usullariga ta’lim, murabbiylik, mustaqil loyihalar, ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, sport va madaniy tadbirlar, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik tarbiyasi kiradi. Yoshlar liderligi nafaqat shaxsiy yetakchilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning fuqarolik faolligi va mas’uliyatini oshiradi. Yosh liderlar ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal etishga hissa qo‘sishi, jamiyatdagi ijobjiy o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin. Yoshlar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yetakchiligining muvaffaqiyatli rivojlanishi ta'lim, davlat, jamoat tashkilotlari va kattalar jamoasi tomonidan qo'llab-quvvatlash va sarmoya kiritishni talab qiladi. Ular yoshlarning o'z salohiyatini yuzaga chiqarishi, yetakchilik qobiliyatini amaliyotda qo'llashi uchun sharoit va imkoniyatlar yaratishi kerak. Yoshlar liderligi – jamiyatning barqaror rivojlanishiga, liderlarning yangi avlodini shakllantirishga xizmat qiluvchi kelajak sarmoyasidir.

Umuman olganda, bugungi yuksalish davri siyosatida mamlakatimizda izchil iqtisodiy islohotlar ijtimoiy rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu esa hozirda intellektual jihatdan yetuk va ijodiy salohiyatli hamda zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, mamlakatimizning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan yoshlarni tarbiya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirilishini nazarda tutadi. Mamlakatimizda yoshlar o'z salohiyat va intilishlarini ro'yobga chiqarishlari uchun yaratilayotgan barcha shart-sharoitlar kelgusida ularni barkamol qilib tarbiyalash, raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishi, o'z innovatsion g'oyalar va tashabbuslari orqali yurt ravnaqi va Vatan tinchiligiga o'z hissasini qo'shishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 8 fevral. №28 (6722).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 29 dekabr. №271-272 (7229-7230)
3. Козина Е.С. Развитие инновационного потенциала в рамках молодежной политики. Сборник статей. - М.: Директ -Медиа, 2013. - С. 29.
4. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - T.: O'zbekiston, 2017. - B. 23.
5. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 14 sentabr // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi - Lex.Uz. <http://lex.uz/>
6. O'zbekiston yoshlar ittifoqi. <http://yoshlarittifoqi.uz/uz/> menu/maqsad-vavazifalar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшлар- келажагимиз” Давлат дастури тўг‘рисида” ги Фармони. 2018 йил 27 июн // Ўзбекистон Республикаси қонун нуткотлари маълумотлари миллий базаси - Lex.Uz. <http://lex.uz/>